O‘ZBEK ANTROPONIMLARINING SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Mardonqulova Nozigul Tulqinovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

1-kurs magistranti

nozigulmardonqulova52@gmail.com

Javunboyeva Zilola Mamasaid qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

1-kurs magistranti

zilolajovunboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek antroponimlarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Antroponimlarning lug‘aviy asoslari, nomlash motivlari hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi lingvistik lingvokultirologik omillar yoritiladi. O‘zbek antroponimiyasidagi fasllar, oylar va hafta kunlari nomlari, yorug‘lik, nur va olov tushunchalari, rasm-rusum va udumlar, tilak, istak va umid mazmunini anglatuvchi ismlar hamda inson tanasidagi belgilar bilan bog‘liq antroponimlar misollar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, ayrim ismlarning semantik mazmuni va badiiy asarlarda qo‘llanishiga e’tibor qaratiladi. Tahlil natijasida o‘zbek ismlarida xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, diniy e’tiqodi, milliy qadriyatlari va farzandga bo‘lgan ezgu niyatlari aks etishi ko‘rsatiladi.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimika, onomastika, o‘zbek ismlari, semantika, lingvokulturologiya, lug‘aviy asos, nomlash motivi, milliy , diniy e’tiqod, urf-odat, E. Begmatov, shaxs nomlari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются семантические и лингвокультурологические особенности узбекских антропонимов. Рассматриваются лексические основы антропонимов, мотивы номинации, а также лингвистические и лингвокультурологические факторы, влияющие на их формирование. На конкретных примерах изучаются антропонимы узбекского языка, связанные с названиями времён года, месяцев и дней недели, понятиями света, сияния и огня, обычаями и обрядами, пожеланиями, стремлениями и надеждами, а также особенностями человеческого тела. Кроме того, уделяется внимание семантическому содержанию отдельных имён и их употреблению в художественных произведениях. В результате анализа выявляется, что узбекские имена отражают историко-культурный опыт народа, религиозные убеждения, национальные ценности и добрые пожелания родителей своим детям.

Ключевые слова: антропоним, антропонимика, ономастика, узбекские имена, семантика, лингвокультурология, лексическая основа, мотив номинации, национальные ценности, религиозные верования, обычаи и традиции, Э. Бегматов, личные имена.

ABSTRACT: This article analyzes the semantic and linguocultural features of Uzbek anthroponyms. It examines the lexical foundations of anthroponyms, naming motivations, and the linguistic and linguocultural factors influencing their formation. Using specific examples, the study explores Uzbek personal names associated with seasons, months and days of the week; the concepts of light, radiance and fire; customs and traditions; wishes, desires and hopes; and human physical characteristics. Attention is also given to the semantic meanings of certain names and their use in literary works. The analysis

demonstrates that Uzbek personal names reflect the historical and cultural experience of the people, religious beliefs, national values, and parents' good wishes for their children.

Keywords: anthroponym, anthroponymy, onomastics, Uzbek names, semantics, linguoculturology, lexical basis, naming motivation, national values, religious beliefs, customs and traditions, E. Begmatov, personal names.

KIRISH. Til xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Uning lug‘aviy tarkibida alohida o‘rin tutadigan atoqli otlar, xususan, kishi ismlari xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va dunyoqarashi haqida muhim ma’lumot beradi. Shu jihatdan o‘zbek antroponimlarini semantik va lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Onomastikaning tarkibiy yo‘nalishi bo‘lgan antroponimika kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari, familiyalari va boshqa shaxsiy nomlarini o‘rganadi. Antroponimlarning shakllanishida ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, tarixiy, ijtimoiy, diniy va madaniy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek antroponimiyasi tarkibida turkiy, arabcha va forscha-tojikcha qatlamlarga mansub ismlarning mavjudligi xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti va madaniy aloqalarini namoyon etadi. O‘zbek ismlarining semantik xususiyatlarini o‘rganishda ularning lug‘aviy asoslari va nomlash motivlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega. E. Begmatov tadqiqotlarida kishi ismlari turli leksik-semantik guruhlarga ajratilib, ularning shakllanishiga asos bo‘lgan so‘zlar va xalqona qarashlar yoritilgan. Jumladan, fasllar, oylar va hafta kunlari nomlari, yorug‘lik, nur va olov tushunchalari, rasm-rusum va udumlar, tilak, istak va umid mazmunini ifodalovchi nomlar hamda inson tanasidagi ayrim belgilar bilan bog‘liq ismlar o‘zbek antroponimiyasining muhim qatlamlarini tashkil etadi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek antroponimlarining semantik mazmuni va lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilish, ismlarning lug‘aviy asoslari hamda nomlash motivlarini aniqlash, ularda aks etgan milliy-madaniy qarashlarni ochib berishdan iborat. Shu maqsadda turli semantik guruhlarga mansub ismlar tahlil qilinib, ularning xalqning diniy e’tiqodi, urf-odatlari, oilaviy qadriyatlari va farzandga bo‘lgan ezgu tilaklari

bilan aloqasi yoritiladi. Tadqiqot o‘zbek ismlarini til va madaniyat mushtarakligida anglashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. O‘zbek antroponimlarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Atoqli otlarning kelib chiqishi, motivatsion asoslari, semantikasi va lisoniy tuzilishini onomastika fani tadqiq qiladi. Onomastika yunoncha so‘z bo‘lib, nomlash bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Uning tarkibiy yo‘nalishlaridan biri antroponimika bo‘lib, kishilarning ismlari, familiyalari, taxalluslari va boshqa shaxsiy nomlarini o‘rganadi. Antroponimlarning shakllanishida oilaviy an’analar, diniy e’tiqod, tarixiy voqealar va ijtimoiy muhit muhim o‘rin tutadi. O‘zbek ismlarida turkiy, arabcha va forscha-tojikcha qatlamlarning mavjudligi xalqning tarixiy-madaniy aloqalarini ko‘rsatadi. Shu sababli antroponimlarni lingvistik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish ularning ma’nosini ochish, milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi[1, 9]. Antroponimlar onomastikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, kishilarga berilgan atoqli otlarni ifodalaydi. Antroponim atamasi yunoncha *anthropos* — inson va *onoma* — nom so‘zlaridan kelib chiqqan. Antroponimika esa shaxs nomlarining kelib chiqishi, semantikasi, tuzilishi, qo‘llanish xususiyatlari hamda lingvistik va nolingvistik omillar bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi sohadir. Antroponimika o‘rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar — konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash.
5. Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlariningnomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida.

6. O‘tgan asrning 20–30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari[1,11] .

O‘zbek antroponimlarining lug‘aviy asoslarini o‘rganish ularning kelib chiqishi, semantik mazmuni va nomlash motivlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ismlarning lug‘aviy asosini turli tillarga mansub leksemalar tashkil etadi. Biroq ismning qaysi tildan kelib chiqqanini aniqlash uning ma’nosi va nomlash sababini to‘liq tushuntirib bermaydi. Chunki so‘z atoqli otga aylanganda, uning dastlabki lug‘aviy ma’nosidan tashqari yangi semantik va madaniy xususiyatlar ham shakllanishi mumkin. Masalan, *Arslon* ismi kuch va mardlik kabi tushunchalar bilan bog‘lanadi. O‘zbek antroponimiyasi tarkibida turkiy, arabcha, forscha-tojikcha va boshqa tillarga mansub ismlar mavjud. Bu holat o‘zbek xalqining tarixiy, diniy va madaniy aloqalari bilan izohlanadi. Ayrim ismlar boshqa tillardan o‘zlashgan bo‘lsa, boshqalari o‘zbek tilida mavjud leksemalar asosida shakllangan. Masalan, *Murod, Anvar, Asal, Ma’rifat* kabi ismlar arabcha lug‘aviy asoslar bilan bog‘liq bo‘lsa, *Safargul, Sofdil, Osuda* kabi ismlarda forscha-tojikcha unsurlar uchraydi. Ismlarning shakllanishida xalqning diniy e’tiqodi, urf-odatlari, estetik qarashlari va farzandga nisbatan ezgu istaklari muhim o‘rin tutadi. Shu sababli antroponimlarni tahlil qilishda ularning etimologik manbasi bilan bir qatorda, semantik mazmuni va lingvokulturologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.Demak, o‘zbek tilida qo‘llanadigan barcha shaxs nomlari, kelib chiqishidan qat’i nazar, o‘zbek antroponimiyasining lug‘aviy boyligini tashkil etadi. Ularni o‘rganish tilimizning tarixiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari va milliy qadriyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. E. Begmatov o‘zbek antroponimlarini lug‘aviy asoslariga ko‘ra turli leksik-semantik guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnifda ismlarning shakllanishiga asos bo‘lgan so‘zlarning dastlabki ma’nosi va nomlash motivlari muhim o‘rin tutadi. Olim tadqiqotlarida antroponimlar hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, tabiiy hodisalar, osmon jismlari, kasb-hunarlar, ijtimoiy mavqe, insoniy fazilatlar va diniy tushunchalar bilan bog‘liq guruhlarni qamrab oladi.Ular quyidagicha

1. Fasllar, oylar, hafta kunlari nomi

2. Yorug‘lik, nur, olov tushunchalari nomi.
3. Rasm-odat, udumlar nomi.
4. Tilak, istak va umid tushunchalarini anglatadigan nom.
5. Badandagi biror ortiqcha va notabiiy belgini ifoda etuvchi nom [1,108].

Birinchi tasnifda **fasllar, oylar, hafta kunlari hamda vaqt bilan bog‘liq tushunchalar** asosida shakllangan ismlar muhim o‘rin tutadi. Ularga Ko’klamoy, Bahora, Ramazon, Navro’z, Navbahor, Asad, Qurbonoy, Odina, Mavluda, Gulchehra, Bozor, Aqrab, Sovur, Shavvol, Sha’bon (kunbotish payti), Qavs, Qovus, Hamal, Asad, Barot, Javza, Kabisa (yil), Zulhijja, Zulqa’da, Ashur, Kunduzxon, Tongotar, Bozorgul, Dushan, Chilla, Yakshanba, Chorshanba, Juma, Jumagul, Shanbagul, Mavluda, Sadar, Subhi, Shafaq (kunbotish) kabi ismlarini misol keltirish mumkin [1,110.] Bunday antroponimlar xalqning vaqt va tabiat haqidagi tasavvurlari, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari, tarixiy an’analari hamda farzand tug‘ilgan davr bilan bog‘liq nomlash motivlarini aks ettiradi. Ularning shakllanishida, bir tomondan, muayyan kun, oy yoki faslning nomi, ikkinchi tomondan esa shu vaqt bilan bog‘liq ramziy ma’nolar va xalqona qarashlar asos bo‘lgan.

Navro‘z ismi o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Fors-tojik tilidagi “yangi kun” ma’nosini anglatuvchi ushbu so‘z 21-mart atrofida nishonlanadigan Navro‘z bayramining nomi sifatida ham qo‘llanadi. Bayram tabiatning uyg‘onishi, kun va tun tenglashuvi, yangi yilning boshlanishi, yasharish va farovonlik bilan bog‘liq tasavvurlarni ifodalaydi. Shu sababli Navro‘z ismi bolaga Navro‘z bayrami kunlarida tug‘ilgani uchun yoki oilada yangi hayot boshlanishi, quvonch va umid ramzi sifatida berilishi mumkin. Bu ismning lingvokulturologik xususiyati shundaki, unda shaxs nomi bilan xalqning umumiy bayram madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi.

Oylar nomi asosida shakllangan ismlar orasida Ramazon, Shavvol, Sha’bon, Barot, Zulhijja, Zulqa’da, Ashur va Qurbonoy kabi birliklar uchraydi. Ularning aksariyati islomiy taqvim va diniy an’analar bilan bog‘liq. Ramazon ismi musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan Ramazon oyining nomidan kelib chiqqan. Bu oy ro‘za tutish, sabr-toqat, poklanish, mehr-oqibat va xayr-saxovat bilan bog‘liq. Shu sababli Ramazon ismi diniy qadriyatlarga hurmat, ezgu niyat va ma’naviy poklik kabi tushunchalarni eslatadi. Shavvol

va Sha’bon ham hijriy taqvimdagi oylar nomlari bo‘lib, ular asosida shakllangan ismlar taqvimiy-diniy nomlash an’analarining bir ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Qurbonoy ismi “Qurbon” va “oy” qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, Qurbon hayiti bilan bog‘liq nomlash an’analarini eslatadi. O‘zbek xalqining an’anaviy ism qo‘yish amaliyotida farzandning muhim bayram yoki diniy sana kunlarida tug‘ilishi uning ismiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Qurbonoy ismi muborak kunlar, baraka va ezgu tilaklar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ayrim oilalarda bu ism Qurbon hayiti arafasida yoki bayram kunlarida tug‘ilgan qizga qo‘yilishi mumkin. Bunda ism nafaqat vaqtga ishora qiladi, balki ota-onaning farzand hayoti xayrli va barakali bo‘lishi haqidagi istaklarini ham ifodalaydi. Qurbonoy ismining lingvokulturologik xususiyati milliy nomlash an’analari va islomiy qadriyatlarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Ismning Qurbon qismi Qurbon hayiti va qurbonlik marosimi bilan bog‘liq diniy tasavvurlarni ifodalasa, oy qismi o‘zbek ayollar ismlariga xos an’anaviy nomlash unsuridir. Ushbu ismda bayramga hurmat, baraka, ezgu niyat va farzandga bo‘lgan mehr kabi madaniy tushunchalar mujassam.

Mavluda ismi arabcha kelib chiqishga ega bo‘lib, “muqaddas kunda tug'ilgan qiz" ma’nosini anglatadi[2,199]. Ismning ma’no xususiyatlari Mavlid oyi, ya’ni islom taqvimidagi Rabiul-avval oyi bilan ham bog‘liq. Ushbu oy Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar tavallud topgan oy sifatida e’zozlanadi. Shu sababli Mavluda ismi, ayniqsa, shu oyda yoki unga aloqador muborak kunlarda tug‘ilgan qizlarga qo'yiladi. Lingvokulturologik jihatdan bu ism xalqning diniy e’tiqodi, milliy nomlash an’analari va farzand tug‘ilishiga bo‘lgan ezgu munosabatini aks ettiradi.Uzoq kutilgan farzand: ba'zi oilalarda uzoq vaqt farzand ko'rmay, intizorlik bilan kutilgan va nihoyat dunyoga kelgan, sovg‘a qilingan qiz ma'nosida ham niyat qilib qo'yiladi.Shu jihatdan Mavluda ismi diniy e’tiqod, oilaviy quvonch va farzandni ne’mat sifatida qadrlash kabi madaniy tushunchalarni ifodalaydi.

Hafta kunlari nomlaridan shakllangan antroponimlar ham o‘zbek nomlash tizimida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Odina ismi o‘zbek, tojik va boshqa ayrim xalqlarning antroponimik tizimida uchraydi. Ushbu ism fors-tojik tilidagi *odina* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, juma kuni ya’ni xosiyatli, qutlug’ kunda tug'ilgan bola ma’nosini anglatadi[2,307].

Til Ismning semantik asosida hafta kunini ifodalovchi tushuncha mujassam bo‘lib, uning shakllanishi xalqning taqvimiy tasavvurlari, diniy e’tiqodlari va an’anaviy nomlash odatlari bilan aloqador. Odina ismining qo‘yilish motivlaridan biri farzandning juma kuni yoki payshanbadan jumaga o‘tar kechasi tug‘ilishi bilan bog‘liq. Islom madaniyatida juma kunining alohida qadrlanishi ushbu ismning ma’noviy mazmunini boyitgan. Shu bois Odina ismi ayrim oilalarda muboraklik, ezgu niyat va farzandning hayoti xayrli hamda barakali bo‘lishi haqidagi tilaklarni ifodalashi mumkin. Lingvokulturologik jihatdan Odina ismi vaqt tushunchasi bilan diniy-madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etadi. Uning antroponim sifatida qo‘llanishi o‘zbek va tojik xalqlarida bolaning tug‘ilgan kuni, oilaviy an’analar hamda xalqona e’tiqodlar ism tanlash jarayoniga ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Demak, Odina ismi nafaqat muayyan hafta kunini bildiruvchi lug‘aviy birlik, balki xalqning madaniy qarashlari va nomlash an’analarini aks ettiruvchi antroponim sifatida ham ahamiyatlidir.

2.Yorug‘lik, nur, olov tushunchalari nomi: Yolqin, Yolqina, Yorqin, Yorqinoy/ Jarqinoy, Oydin, Oyyorug‘, Oyyorqin, Ravshan, Ravshana, Ziyo, Zohir (nurli), Munavvar, Munira (nurli), Nur, Nurlan, Olov, Shahob (nurli yulduz), Anvar[1, 111].

Yorqinoy ismi hayoti nurli va oydek suluv qiz yoki mehribon, dilkash qiz[2, 128]. Bu ism ikki ta’sirchan va chiroyli so‘zning birikmasidan hosil bo‘lgan: Yorqin — yorug‘, porloq, nurli, ravshan. Oy — go‘zallik, nafosat va poklik timsoli. Uning lingvokulturologik xususiyatiga ko'raIsm o‘zbek xalqining milliy-madaniy qarashlarini aks ettiradi. Undagi “yorqin” komponenti yorug‘lik, umid va porloq kelajakni, “oy” komponenti esa go‘zallik, nafosat va latofatni ramziy ifodalaydi. Ismda farzandning go‘zal, baxtli va kelajagi porloq bo‘lishiga doir ota-onaning ezgu niyatlari mujassam.

Munavvar ismi nurli ravshan, yorqin degan ma'noni anglatadi [2, 257]. Lingvokulturologik xususiyatiga ko'ra o‘zbek madaniyatida nur va yorug‘lik ezgulik, ma’rifat, bilim va poklik ramzi hisoblanadi. Shu jihatdan Munavvar ismi ma’rifatli, ziyoli, qalbi nurga to‘la inson haqidagi ijobiy tasavvurlarni ifodalaydi. Ismda farzandning ilmli, odobli va hayot yo‘li ravshan bo‘lishiga doir ezgu niyatlar mujassam bo‘lishi mumkin.

3.Rasm-odat, udumlar nomi: Basbibi, Basgul, Begona, Yodgor, Yodgora, Mehmon, Mehmonoy, Yetar, Yetargul, Yovqoch, Janglip, Jong‘il, Istamas, Kirli, Kerakmas, Ochil, Ochiloy, Ochila, Sotiboldi, To-piboldi, Topildi, Topilgon, Tortiq, Tuvoqberdi, Turar, Turaqol, Ulbas, Ultug‘ar, Chalaboy, O‘giloy, O‘giltug‘ar, Qiztugmas, Qoldiqiz, Kondim, Qo‘shoq, Ostona, Otashmirza, Karomat, Kasofat, Kifoya, Kifoyat, Nihoyat, Sabila, Sunnat, Tokay (qachongacha), Hadicha (chala tutilgan), Sadaf (tish bilan tugilgan)[1, 111].

Yodgor tug‘ilgandan keyin otasi yoki onasi vafot etgan, ulardan esdalik,yodgor bo'lib qolgan farzand [2,124].Yodgor — o‘zbek tilida qo‘llanadigan, tarixiy-madaniy mazmuni va ramziy ma’nosi bilan ajralib turadigan antroponim (kishi ismi). Ushbu ismning semantik mazmuni xotira, esdalik, yodda saqlash va inson xotirasida qolish tushunchalari bilan bog‘liq.Yodgor so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida esdalik, xotira sifatida saqlanadigan narsa yoki kimnidir eslatib turuvchi belgi ma’nolarida qo‘llanadi. Yodgor ismining asosiy lingvomadaniy mazmuni xotira va esdalik madaniy kodi bilan belgilanadi.O‘zbek madaniyatida insonni eslab yurish, uning yaxshi fazilatlarini yodda saqlash, o‘tgan avlodlarni hurmat qilish muhim qadriyatlardan hisoblanadi. Yodgor ismi ana shu qadriyatlar bilan mazmunan bog‘lanadi.

Ochiloy- Oydek ko‘rkam qiz kasaldan forig‘ bo‘lsin [2, 331]. Ochiloy ismi lingvokulturologik jihatdan o‘zbek xalqining tabiat, go‘zallik va ezgu tilaklar bilan bog‘liq milliy qadriyatlarini ifodalaydi. “Ochil” so’zi ochilish va yangilanishni, “oy” komponenti esa go‘zallik, yorug‘lik va latofatni anglatadi. Ism farzandning sog‘lom, go‘zal va baxtli bo‘lishiga bo‘lgan ezgu niyatni aks ettiradi.Ayrim chaqaloqlar tug'ilgan vaqtidan to yetti kungacha ko'zini ochmasligi mumkin. Shunday vaziyatlarda chaqaloqlarga Ochiloy ismi qo'yiladi.

O‘g‘iloy – shu qizdan keyin o‘g‘il bo’lsin[2, 534]. O‘g‘iloy ismi lingvokulturologik jihatdan o‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari, nasl davomiyligi va farzandga bo‘lgan umidlari bilan bog‘liq. “O‘g‘il” so’zi nasl davomchisi haqidagi an’anaviy qarashlarni, “oy” so’zi esa go‘zallik va latofatni ifodalaydi. Ism milliy nomlash an’analari hamda oilaviy qadriyatlarning tildagi aksini namoyon etadi.

4.Tilak, istak va umid tushunchalarini anglatadigan nom: Umid, Umida, Tilakboy, Tilakberdi, Tilaboldi, Sog‘indiq, Suyundiq, Tursun, Yursin, O‘lmas, Izbosar va boshqalar[1, 115].

Tiloboldi- tilab, orzu qilib olingan, erishilgan bola [2, 412] .Ota-onaning tilak va orzulari bilan kutilgan, dunyoga kelishi katta umid bilan qarshi olingan farzandni ifodalovchi ism. Lingvokulturologik jihatdan xalqning farzandga bo‘lgan orzu-istaklari va ezgu niyatlarini aks ettiradi.

Tursun- yashasin, omon sog’ bo’lsin degan ezgu tilakni ifodalovchi ism[2, 429]. Lingvokulturologik jihatdan xalqning farzand umrining uzoq va barakali bo‘lishiga bo‘lgan istagini aks ettiradi. Ushbu ism Oybekning “Qutlug‘ qon”, S.Ahmadning ‘’Ufq’’ asarida ham uchraydi.

Tursunoy- sog’ tursin, yashasin va oydek suluv qiz bo’lsin [2, 430]. Lingvokulturologik jihatdan ism xalqning farzand salomatligi, uzoq umr va go‘zallikka oid orzu-istaklarini aks ettiradi. Tursunoy ismi Oybekning “Qutlug‘ qon” hamda Asqad Muxtorning “Opa-singillar” asarlarida uchraydi.

Umida – orzu qilingan, kutilgan qiz [2, 446]. Lingvokulturologik jihatdan ota-onaning farzandga bo‘lgan umid va ezgu istaklarini ifodalaydi. Umida obrazi Asqad Muxtorning “Chinor” asarida uchraydi.

E. Begmatov “chaqaloq dunyoga kelgach, uning badanidagi belgilarga ishora qiluvchi Qoriq, Qo‘shboy, Qo‘shboq, Oltiboy ismlarining; go‘dakning yuzi, ko‘zi va sochiga xos xususiyatiga ko‘ra qo‘yiluvchi Ko‘kiboy, Sariboy, Qoraboy. Bu kabi ismlar orasida eng katta qatlamni yangi tug‘ilgan farzandning badanidagi biror belgi asosida qo‘yilgan ismlar tashkil etadi. Ajdodlarimiz so‘zning sehrli kuchiga qattiq ishonishgan va bunday chaqaloqlarni “o‘z nomlari bilan tug‘ilgan bolalar” deb hisoblashgan. Bu holni Allohning qudrati, ne’mati deb bilishgan va bu bolalarga tanasidagi belgi nomi bilan bog‘liq ismlar tanlashgan. Masalan, bola tanasining biror joyida xol, nor (qizil xol) bilan tug‘ilganda unga tarkibida nor, xol, toji, meng kabi leksemalar mavjud bo‘lgan ismlar tanlashgan, bu odat xalqimiz orasida hanuzgacha saqlangan[3, 4]. Xalqning sodda tasavvurlariga ko‘ra, agar shunday ismlar tanlanmasa, belgi ko‘payib ketadi yoki bolaning sog‘ligiga zarar yetkazadi

degan qarashlar bo‘lgan. Bunday ismlar xotin-qizlar ismlari orasida ham, erkaklar ismlari orasida ham anchagina. Masalan, Norbek, Norboy, Normuhammad, Normamat; Norgul, Norbibi, Norchuchuk, Norbuvi, Norsuluv; Xolboy, Xolbek, Xolmuhammad; Xolniso, Xolbibi, Xoljon, Xolbeka; Tojivoy, Tojimuhammad; Tojiniso, Tojigul, Tojibibi, Mengsuluv, Menglitosh, Mengliboy, Menglisafar kabi. Bunday ismlarni E. Begmatov so‘zning (ismning) sehrli kuchiga ishonish bilan bog‘liq qarashlar asosida qo‘yilgan ismlar deb ataydi.

5.Badandagi biror ortiqcha va notabiiy belgini ifoda etuvchi nomlarni quyidagi guruhlarga bo’lgan.

a) *badandagi biror notabiiy belgini ifoda etuvchi ismlar:* Norqo‘chqor, Norqo‘zi, Norsafar, Norxol, Norsuluv; Xoldor, Xolmo‘min, Xolbeka, Buvixol, Momoxol, Oyxol, Xoldor, Berdixol, Turdixol; Mengnor, Menglixon, Menglixol (Meylixol); Tojiniso, Tojinor; Nishonbek, Nishonoy kabi.

b) *tanasida biror ortiqcha a’zo bilan tug‘ilganlikni ifoda etuvchi ismlar:* Ziyod, Oyziyod, Oltiboy, Ortiqoy, Sirg‘aboy, Baraka, Karomat, Hayratoy, Ijoza kabi.

d) *bolaning rang-tusi, ba’zi tana a’zolarining ko‘rinishi bilan bog‘liq ismlar:* Mallaxon, Mallabek, Sariqsoch, Oqbuvi, Qoraqosh, Ko‘kko‘z, Qorako‘z, Qoraqiz, Qo‘ng‘irboy, Zarmamat (Zarmuhammad), Zarguna kabi.

e*) tishi bilan tug‘ilgan farzandlarga qo‘yilgan ismlar*: Bo‘rixon, Bo‘ribek, Bo‘ritosh, Bo‘rixol, Oybo‘ri, Sadafbek, Oysadaf, Sadafbibi.

Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan ism tanlash odatlaridan biri tish bilan tug‘ilgan bolalarga bo‘ri leksemasi bilan bog‘liq ismlarni tanlash udumidir. “Bola ba’zi hollarda tishli (milklarida oqarib turgan belgi) bo‘lib tug‘ilgan. Bunday bolalar quyidagi ismlardan biri bilan nomlangan: Sadaf, Sadafgul, Sadafxon, Bo‘rigul, Bo‘riniso, Bo‘rixol (qiz bo‘lsa), Bo‘ri, Bo‘riberdi, Bo‘riqul (o‘g‘il bo‘lsa)”. Bo‘ri (o‘z.) – qadimiy odatga ko‘ra sog‘ bo‘lsin deb bo‘rining jag‘idan(terisidan) o‘tkazib olingan bola yoki tish bilan tug‘ilgan bola. Shakllari Bo‘riboy, Bo‘rijon, Bo‘ribek, Bo‘ritoy, Bo‘riqul. Ushbu turdagi ismlarda xalqning ikki turdagi qarashlari, an’analari o‘z aksini topgan. Shuningdek,

xalqimiz orasida Bo‘rimat (Bo‘rimuhammad), Bo‘ritosh, Melibo‘ri (Menglibo‘ri), Oybo‘ri, Eshbo‘ri kabi ismlar ham keng tarqalgan [2,82].

Xulosa. O‘zbek antroponimlarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida kishi ismlari nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklari ekanligi namoyon bo‘ladi. Ismlarning shakllanishida ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, farzandning tug‘ilgan vaqti, oilaviy sharoit, urf-odatlar hamda ota-onaning orzu-istaklari muhim o‘rin tutadi. O‘zbek antroponimiyasida fasllar, oylar va hafta kunlari bilan bog‘liq ismlar xalqning vaqt va tabiat haqidagi tasavvurlarini, yorug‘lik, nur va olov ma’nolarini anglatuvchi ismlar esa ezgulik, ma’rifat va porloq kelajak haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Rasm-rusum va udumlar bilan bog‘liq antroponimlarda an’anaviy nomlash odatlari, tilak, istak va umidni ifodalovchi ismlarda farzandning sog‘lom, uzoq umrli va baxtli bo‘lishiga doir ezgu niyatlar aks etadi. Inson tanasidagi ayrim belgilar asosida shakllangan ismlar esa xalqning qadimiy e’tiqodlari va nomlash an’analarini namoyon qiladi. Tahlil qilingan misollar o‘zbek ismlarining semantik mazmuni bilan ularning madaniy talqini o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim ismlarning badiiy asarlarda qo‘llanishi ham ularning til va adabiyotdagi o‘rnini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Demak, o‘zbek antroponimlarini lingvistik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish tilimizning lug‘aviy boyligini, xalqimizning milliy-madaniy merosini va an’anaviy nomlash tizimini chuqurroq anglash imkonini hamda xalq milliy madaniyati, diniy-falsafiy qarashlari, tarixi, urf-odatlarini o‘zida aks ettiruvchi manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir davrda kishilar uchun tanlangan ismlar o‘sha davr haqida xabar berib turadi. Shunday ekan, kishi ismlari xalqimiz tarixi, madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013. – 264 б.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – 608 б.

3. Djurayeva Y. Antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida. Maqola

4. Jabborov X., Djurayeva Y. O‘zbek xotin-qizlari ismlarining ma’nosini bilasizmi? (Izohli lug‘at).– Toshkent: “Ideal press”, 2025. – 245 b.

5.Oybek Qutlug‘ qon. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 368 b.

6. Said Ahmad Ufq. – Toshkent: ‘’Turon Zamin’’ nashriyoti, 2024. – 512 b.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Uchinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 843 b.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Beshinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 862 b.

9. Xudoyberganova. D Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent:"Tubo nashr" , 2022. –120 b.